

**ANDRAGOGIK O'QITISH MODELINING PEDAGOGIK O'QITISH MODELIDAN FARQLI  
JIHATLARI**

**Hasanova Noila Namozovna  
Asadova Gulruh Islomovna**  
*Buxoro shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Maqolada andragogik o'qitish modelining nazariy va metodologik asoslari, insonnni butun hayot yo'li davomida o'qitish va ta'lism berish tamoyillari, usul hamda vositalari haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Andragogika, pedagogika sohasi, kattalar ta'limi, muammolar, insonshunoslik, kattalar ta'limi amaliyoti, metodologik asoslar, xayot yo'li, tamoyillar, vositalar, rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi, moslashtiruvchi, o'z-o'zini tuzatish, jarayon, kasbiy ta'lim, mustaqil ta'lim*

Hozirgi kunda ta'lim tizimiga berilayotgan katta e'tibor tizimning turli bosqichlariga alohida etibor qaratilishini va ushbu bosqichlarning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda jarayonni tashkil etishni taqazo etmoqda. Inson tug'ilganidan to umrining ohirigacha bo'lgan davrda ro'yobga chiqaradigan maqsadli, rejali faoliyatiga ta'lim ko'maklashib turadi. Mazkur nuqtadan - nuqtagacha bo'lgan davr oralig'inining kattagina qismi bolalik yoki o'smirlikka emas, aynan kattalik davriga tegishlidir

Biz jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olib, kattalarga ta'lism berish orqali ijtimoiy hayotni mohiyatini o'zlashtirishlariga ko'mak beruvchi zamonaviy o'quv jarayonini ahamiyatini ta'kidlashni istardik.

Kattalarni o'qitish, o'rgatish sohasi hisoblangan "androgogika" kattalarga ta'lism beruvchi san'at va fan hisoblanadi.

Andragogika - kasbiy rivojlanish, kattalarni o'qitishda masofali ta'liming imkoniyatlari, halq universitetlari, ayollar ta'limi, kattalar ta'luming shakllari va texnologiyalari, yoshi katta kitobxonlar ta'limi, ta'limi turizm, pedagogik jarayonni tashkil etishda pedagogik andragogikani egallashni talab etadi

Androgogik model quyidagi beshta asosga tayanadi:

- 1) o'rganuvchilarga biror narsani o'rganish nima uchun muhimligi bildirish;
- 2) o'rganuvchilarga ma'lumotlar ichida o'zlarini qanday boshqarishni ko'rsatish;
- 3) mavzuni o'quvchilar tajribasiga bog'lash;

4) odamlar to o'rganishga tayyor bo'limganicha yoki motivlanmagunicha ishga kirishmaslik;

Bu esa o'rganish bo'yicha to'siqlarni, xatti harakatlar va e'tiqodlarni bartaraf etishni talab qiladi. J.Rachal androgogikani kattalarga ta'lism berish vositasi sifatida o'rganib, kattalat ta'limda talabalar o'z motivatsiyalariga o'zlari mas'ul bo'lishlari kerakligini

ta'kidlaydi. Androgogika talabalarni nazorat qilishga, egallanayotgan bilimlarni mavjud standartlarga asoslanib baholab borishga va talabalarni o'rganishga ixtiyoriy jalg etishga chorlaydi

Androgogikaning asosiy nazariyalaridan yana biri, o'qish / o'rganish haqiqiy qadriyat sifatida ta'qib qilinishidir. Androgogika qoniqishni ko'lamenti va talaba belgilagan natija darajasini talab qiladi. Bu shartlarning hech birini oliv ta'lim mazmuni orasidan osonlikcha topib bo'lmaydi, ayniqsa, o'qitilishi nazarda tutilayotgan kursning maqsadiga qoniqish asosiy aniqlovchi sifatida kiritilmagan bo'lsa. Bolalar ta'limida o'qituvchilar tashqi motivatsion omillar (baho olish, ota-onaning yoki o'qituvchining talabi, uyalib qolishdan qo'rqish va h.z.) sifatida muhim o'rinni egallasa, oliv ta'limda esa tashqi omillar o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatsa-da, talaba mas'uliyatini kuchaytirmaydi. Bunday farqni ajrata bilgan o'qituvchigina tegishli metod, texnologiya va yondashuv orqali talabalarga bilim olish ko'nikmalarini o'rgatishda muvaffaqiyatga erishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli o'qishga bo'lgan motivatsiya omili ko'pincha intellekt omilidan kuchliroqdir. O'rganish jarayonini yoqimli qilishda o'rganuvchilar motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Shu sababli motivatsiyani shakllantirish, rivojlantirish, kerakli darajada saqlashga doir metod hamda yondashuvlarni inobatga olib, darslar va o'quv materiallarini tashkillashtirgan holda olib borish talab etiladi. Birinchidan, taqdim etilayotgan matnlar, audiovizual materiallar, vazifalar va dars mashg'ulotlari talabaning qiziqishlariga mos bo'lishi lozim. Ikkinchidan, o'qituvchi talabalarga vazifalarni bajarilishini baholash imkonini berishi va ularning ehtiyojlari boshlang'ich rolni o'ynashi talab etiladi Uchinchi muhim narsa – mashg'ulotlardagi humor, musiqa singari dars mavzusidan tashqari, qo'shimcha mashg'ulotlar komponentlari talabalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish xususiyatlari hisoblanadi. Qo'shimcha mashg'ulotlar sifatida nafaqat humor yoki ko'ngilochar mashg'ulotlar, balki talabalarning orasida kurs maqsadiga mos bellashuvlar uyushtirish, misol uchun, poster taqdimotlar, video taqdimotlar, loyiha ishlari, guruhlarda loyiha ishlarini tashkillashtirish va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ayrim kattalarda o'zining ta'lim olish qobiliyatiga ishonchsizlik mavjud bo'ladi. Ular yosh o'tishi bilan idrok, xotiraning susayganligini ro'kach 23 qiladilar. Ammo tadqiqotchi olimlarning ko'rsatishicha, har qanday yoshda ta'lim olish mumkin. Chunki turli yoshlarda diqqat, xotira va tafakkurning shakliari va tipi yoshga mos xoJda o'zgarib boradi. Zamonaviy dunyoda axborot oqimining kuchayganligi, kishilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati o'qitishni davomiy va izchil tarzda tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligidan darak beradi. Hayot faoliyatining turli bosqichlarida kishilarga bir - biriga o'hshash talay vazifalar yuklatiladi:

Xulosa shuki, pedagogikadan farqli ravishda androgogikaning ta'limiy maqsadi o'rganuvchilarga mazmunni qabul qilishga va unga tanqidiy fikr bildirishga zamin yaratish hamda uni hayotda amaliy qo'llay olishda namoyon bo'ladi.

**ADABIYOTLAR R O 'YXATI:**

1. Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995 .-№2
2. Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslix. — M., 2002.
3. Rossiyskaya pedagogicheskaya enstiklopediya: V 2 t. / Pod red. V. V. Davqdova. — M., 1993 — 1999.
- 4.. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilami o'qitish markaziga: qadam-baqadam T;" CHASHMA" -2013
5. Azizxajaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU, 2003.
6. Rabochaya kniga andragoga / Pod red. S. G. Vershlovskogo. — SPb, 1998